

## BERDAQ IJODI YOSHLAR NIGOHIDA

*Ibragimova Iroda Yo'ldosh qizi**Toshkent pediatriya tibbiyot institutining**2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti**209-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Shoir Berdaq adabiyotda o'zining takrorlanmas ijodi bilan ajralib turadi. Uning har bir she'ri o'ziga xos ma'no-mazmunga egadir. Ijodkorning har bir misralari ta'sirli va shoirning hissiyotlari aks etganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Motolaa qilayotgan har bir inson ijodkor bilan suxbatlashgandek tuyg'ularni his qiladi. Eng muhimi biz Berdaq ijodini qanchalik chuqur o'rganishga kirishsak, unga bo'lgan hurmatimiz shunchalar ortib boraveradi. Shoirning ijodi o'zining dostonlari va pur ma'no she'rlari bilan ajralib turadi. Uning har bir she'ri bir insonning dardi, ichki kechinmalarini o'zida qamrab olgan.

**Kalit so'zlar:** shoir, she'r, ijod, doston, hayot, adolat, vatanparvarlik, insoniylik, hurmat.

Berdaq hayoti haqidagi ma'lumotlar juda oz. Afsuski, shoirning tarjimai holi hozirgi kunimizgacha yetib kelmagan. Shoir haqidagi eng muhim ma'lumot detallarini o'z asarlarida ko'ra olishimiz mumkin. U o'zining "Umrin" nomli qo'shig'ida o'zining avtobiografiyasini qoldirgan. Bundan tashqari Berdaq haqida ba'zi zamondoshlari ham qisqacha ma'lumotlar qoldirgan. Lekin bular ham shoir tarjimai holi haqida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq 1827 yili Orol dengizining janubiy sohilidagi "Oq qal'a" degan joyda kambag'al baliqchi oilasida dunyoga keldi. U joy hozirgi Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumaniga to'g'ri keladi. Ota-bobolari qishloqning eng kambag'al odamlaridan bo'lgan, uyi ham, molu-mulki ham, amali ham bo'lmagan. Uning otasi Qarg'aboyning birinchi xotini vafot etganidan so'ng u to'rtta yosh farzandlari bilan qoladi va o'zi bu bolalarni yolg'iz eplay olmasdi, shuning uchun unga bir turmush o'rtoq zarur edi. Bu kambag'al insonni uylanishi ham qiyin edi. Chunki u davrda kelinning qalin pulini beradigan sharoitda emas edi. U o'ziga o'xshagan bir kambag'al ayolni topib, uylandi. Uning ikkinchi ayolidan bizning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi bular: Fozilbek, Berdibek, Kalibeklardir. Shoirning hayotidagi xursandchilik, tug'ishganlari orasida uzoq davom etmadi. O'n yoshida u o'z yaqinlaridan ya'ni, otanasidan judo bo'ldi. Ko'p kishilik Qarg'aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonga tarqalib ketadilar. Berdaqni, Qarg'aboyning akasi Qoshqarboy va uning o'g'li Nazarbiy o'z qaramog'iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam beradi[1].

Berdaqning keying umri ham qashshoqlik, yo'qchilik bilan o'tgan. Shoir o'zining hayoti to'g'risida ko'p narsalar yozadi. Berdaq "Yoz kelarmi" degan qo'shig'ida o'zining turmush ahvoli haqida:

Yovganim yo'q ichmakka,  
Ko'ligim yo'q ko'chmakka.  
To'shak yo'q to'shamakka,  
Sho'rli elga yoz kelarmi.

Bu she'r orqali Berdaq nafaqat o'zining hayotini balki, biz yoshlarga tinch hayotimizning qadriga yetishimizni, qorinlarimiz to'q, ustlarimiz but bo'ganiga shukurlar keltirish kerakligini ta'kidlab o'tadi.

Shoir "Bilmadim" degan qo'shig'ida:  
Kiyganim yamoq-yashiq,  
Uning ham bor yeri teshik,  
Dunyo menga bo'ldi qoshiq,  
Ne bo'larimni bilmadim.

Biz Berdaqning o'z asarlaridan va shoirni biladigan odamlarning so'zlaridan ham uning juda kambag'al bo'lganligini, mehnatkash xalq orasidan chiqqanligini ko'ramiz. Shunga qaramay bu yillar davomida Berdaq o'qish va yozishni o'rganadi. Avval ovul maktabida, keyin esa „Qoraqum eshon“ madrasasida taqsil oladi. U yerda u o'z bilimini yanada oshiradi. Ziyrak xotira va mehnatsevarlik uning o'qimishli bo'lishi uchun unga juda katta yordam beradi. Berdaqda yoshligidanoq shoirlik qobiliyati paydo bo'ladi va badiiy adabiyotga bog'lanib qoladi. O'sha paytlarda bo'lajak shoir ertaklarni, afsonalarni va mashhur shoirlarning she'rlarini eshitib va qiziqib yurar edi. Uning she'rlarini o'sha vaqtdagi mashhur baxshilar qo'shiq qilib aytardilar. O'zining "Ahmoq podshoh" asarida Berdaq o'zini ertaksevarligini aytgan. O'n ikki-o'n uch yoshida Berdaq asarlar yozishni boshlaydi, birinchi asarlari oddiy mavzulardan iborat bo'lgan. Keyinchalik esa u to'ylarda baxshi (qo'shiqchi) bo'lib xizmat qilgan.

Bolalikdan ko'ngliga she'r uchquni tushgan bo'lajak shoir Alisher Navoiy, Fuzuliy, Kunxo'ja kabi turkiy dunyoning mashhur so'z san'atkorlari ijodini sevib mutolaa qiladi. „Izlar edim“ she'rida uning o'zi bu haqda shunday yozadi.

Navoiydan savod ochdim,  
Fuzuliydan durlar sochdim,  
Maxtunquli o'qiganda,  
So'zin tavof aylar edim.

Berdaq ijodga juda qiziqqan va buyuk bobolarimiz ijodini mahorat ila o'rgangan. Berdaqning turmushi qanday og'ir bo'lganini bilib oldik. Lekin shunga qaramay shoir ijodni tashlamadi, hayotidan nolimadi, xalq dardini qo'shiqqa solib, kuylab ularga dalda berdi. Shoir "Oydo'stbiy", "Omongeldi", "Ernazarbiy" va boshqa ajoyib asarlar

yoʻzgan, shoirning bu asarlarida, vatanparvarlik haqida fikrlarini bildirganini ham koʻrishimiz mumkin. Berdaqning koʻpgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari koʻrsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan. [2]

Diqqat qilinsa Berdaq oʻz hayoti va ijodining butkul maqsadi va mazmunini xalqqa xizmat etish, uning ogʻirini yengil qilish, doimo u bilan bir jon-bir tan boʻlishda deb bilgan. Mana shu fazilatning oʻziyoq Berdaq abadiylikni belgilab beradi va uning asarlarini barcha zamonlar uchun mos kelishini koʻrsatadi. Uning tarixiy poemalari, dostonlarini ham asosiy mazmuni xalq hayoti, adolatga talpinish hisoblanadi. Agarda „Omongeldi“ asarini koʻrib chiqsak, unda haqiqatga talpinish ifori ufuq turadi. Dostonning asosiy mazmuni jamiyatdagi muammolar, tenglik hisoblanadi. Bu yoʻlda xatto, xonga qarshi chiqish kerak boʻlsa ham, qiyinchiliklar koʻp boʻlsa ham adolatsizlikka koʻz yummaslik kerakligi, Omongeldi esa asosiy qahramon sifatida gʻavdalantiriladi. Bu dostonning yana bir asosiy mazmuni bu qizlar huquqi, ularni shaʼnini himoyalash, insonlar tengligi hisoblanadi.

Qoraqalpoq bermas qizin,  
Hammasi ham mening koʻzim,  
Totirikman, tegmas hech kim-  
Deb er Asan qoʻqon keldi.

U zamonlarda qizlarni odam oʻrnida koʻrmaslik, zoʻrlab turmushga berish, xonlarning esa qizlarga oʻch boʻlgan payti edi. Buni, „Axmoq podshoh“ asari orqali ham koʻrishimiz mumkin. Shoir Berdaq esa barchani teng koʻrdi, yosh-u qari, qiz-u ayollarni huquqlari, erkinliklari uchun bir xil kurashdi. Oʻz fikrlari, dunyo qarashlarini qogʻozga tushurib oddiy xalqqa yorugʻlikka talpinish umidlarini berdi. Berdaqning keyini dostoni „Oydoʻstbobo“ ham jamiyat hayoti, undagi haqsizliklar haqidadir.

Xonning qilgan buyrugʻi shul,  
Xon amriga boʻyinsungil,  
Hammaga bir day soliq pul,  
Oling endi, Oydoʻst bobo.

Mana shu misralarga eʼtibor bersak, Oydoʻstbobo adolat ramzi qilib olingan. Xon buyrugʻiga xalq uchun qarshi chiqishlik bu oliyanoblik hisoblanadi. Oʻzidan xalqni ustun qoʻygan inson yuksak xurmatga loyiqdir. Xalqni oʻylab xonga qarshi chiqishlik hammaning ham qoʻlidan kelavermaydi. Bu toʻrtlik orqali shoir barchamizni yurt deb yashashga, halollikka, odillikka chorlaydi. Shoirimizning alohida kitobga nomi berilib chiqqan sheʼrlari diqqatimizni tortdi.

Xalq, millat, qardoshlik, mehr-muhabbat bu har bir inson uchun begona boʻlmagan tuygʻulardir. U yana oʻz ijodida insoniyat, oddiy xalq mavzusiga juda jiddiy qaraydi. „Xalq uchun“ nomli sheʼr Berdaq lirikasining choʻqqilaridan biri, insoniylikni ulugʻlovchi oʻziga xos „madhiya“. Odamiylik tarannumining oliy ifodasi boʻlmish bu



she'ni Mirtemir tarjimada juda maromiga yetkazgan. Quyidagi misolga diqqatingizni qaratamiz.

Yigit bo'lsang, asrlonday tug'ilgan,  
Xizmat qilgin kecha-kunduz xalq uchun.  
Yigit bo'lsa, asrlonday tug'ilgan,  
U hech qachon ish qilmas o'zi uchun.

Bu misralar orqali shoirimiz barcha odamlarni, yigitlarni ezgulikka, xalq uchun xizmatga chorlaydi. Yigit kishi bor ekan doim mehnat qiladi, risqini izlab yuradi, oilasi uchun harakatda bo'ladi. Qilinayotgan mehnatdan ham har bir shaxsning ham o'z manfaatlari turadi. Shoirimiz dunyo qarashlari, fikrlashi shunchalar hayrliki har bir ishing, nafasiz ezgulik bo'lsin, barcha uchun manfaatli va kerakli bo'lsin deb jar soladi.

O'zini o'ylaydi aqli yo'q jonlar,  
Xolin bilmay kibr etadi nodonlar,  
Kurashing ularga qarshi, insonlar,  
Bir ish qilmas ular hech vaqt xalq uchun.

Har bir zamonda faqat o'zim deb yashovchi insonlar qoralab kelingan. Bunday insonlarning har bir ishi, har bir so'zi, har bir qarashiyu, fikrlari ortida o'z ehtiyojlari yotadi. Bunday fikrlovchi insonlarning hech biri ikki bo'lmaydi. Odam qachon ummatni o'ylay boshlasa, xalqim desa shundagina yuksalishi mumkin. Berdimurod ham bu misralar orqali bunday insonlarni qoralaydi, hatto ularga qarshi kurashish darkorligini ta'kidlaydi.

Shoir Berdaqning hayot yo'llariga nazar solsak shoirimiz islom diniga e'tiqod qilganligini, risqiga, she'rlariga doim Allohdan ko'mak izlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Quvvat bergay Alloh nozik bellarga,  
Madad bergay yosh ochilgan gullarga,  
Baxt hech kularmikin bizning ellarga?  
O'lguncha aytarman so'zni xalq uchun.

Shoir ijodi keng qamrovli hisoblanadi va har bir mavzuga alohida dostonlar, she'rlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan shoirning xotin qizlar huquqlari, qadrlari, obro'lariyu, jamiyatdagi o'rinlari haqidagi asarlariga, "Ahmoq podshox", "Kelin", "Bilasanmi" kabilarni misol qilib olishimiz mumkin. Do'stlik mavzulari yuzasidan "Keldi" shoirning do'sti Omon haqida, "Musa baxshi" kabi ijod namunalarini olishimiz mumkin. Hayvonlar mavzusida "Ho'kizim" she'rini olishimiz mumkin bu she'rda shoir hayvonlarga mehr bilan muomala qilish ular bilan do'st tutinish mavzularini yoritib beradi. To'rtlik keltirsak:

Ho'kizim  
Xayt jonivor, chux deganda yurasan,  
Ko'nglim xushdir senga bir bor qarasam,

Hali meni xizmatimga yaraysan,  
To o'lguncha rahmat senga ho'kizim.

Insonning asli qandayligini bilmoqlik uchun uni hayvonlarga munosabatidan ham bilishimiz mumkin. Shoir Berdaq xalqni hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lishni o'z she'rlari orqali bayon qiladi. Shoir Berdaqning e'tiborimizni tortgan yana bir she'rlari bu adolat va tenglikka bag'ishlangan "To'yda" she'ridir.

To'yda  
To'yxonaga bizlar keldik,  
Mehmon bo'lib, yorma yedik,  
Qulmonboyga lanat dedik,  
Teng ko'rmadi u barchani.

She'rni o'qir ekanmiz tenglik doim muhimligini, odam ajratish, tanlash qanday yomon xislat ekanligini, bu o'sha insonga nisbatan kamsitish, hatto haqorat kabi tegishini his qilsak bo'ladi. Berdimurodning yana bir she'ri boshqalaridan ajralib turar ekan, to'rtgina qatordan iborat ammo pur ma'noga ega she'r ekan.

Til va tish  
Tishginam sendan roziman,  
Og'zim qalqonisan mahkam,  
Tilginam sendan noroziman,  
Boshim balosisan har dam.

Bu juda ma'noli she'r ekan. Ota -bobolarimiz aytgan o'zbek xalq maqoli kabi, "Tig' yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi". Bu misralar juda haqli. Har birimiz so'zimizni o'ylab keyin so'zlashimiz, agar to'g'ri so'zlay bilmasak sukut saqlaganimiz maqulligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson umri bebahodir. Har bir shaxs uni qanday o'tkazganini o'zi yaxshi biladi. Aksariyat xollarda odamzot umrini, vaqtini o'z hayoti uchun, o'z nafsi yo'lida o'tkazib yuboradi. Ammo, biz yoshlar bunday bo'lmasligimiz, o'zimizdan keyin nomimiz qolishiga, barcha juda bebaho inson edi deb eslashlariga loyiq bo'lishimiz kerak. Shoirimiz Berdaq ham o'zi boshidan shunday qiyinchiliklar o'tishiga qaramay hech ijoddan to'xtamadi. Adolatsizlikka qarshi kurashdi, doim tenglik haqida jar soldi, o'zim demadi ona yurtim, xalqim deb yashadi. Shunday ekan biz azizlar dunyo qarashimizni o'zgartirishimiz, oilam, do'stlarim ona Vatanim deb yashamog'imiz darkordir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaq "Tanlangan asarlar" Ibrohim Yusupov, Baxtiyor Nazarov, Kenesboy yusupboyev.
2. Berdaq "Xalq uchun" kitobi Ergash Ochilov tarjimasini.